



**TALABALAR NUTQIDA XORIJIY SO‘ZLARNING QO‘LLANISH
SABABLARI VA O‘ZARO
TOMONLARI**

Abdinazarova Marjona

*Samarqand Davlat Chet Tillar Insituti
marjonaabdunazarova2007@gmail.com*

Antonatsiya: Ushbu maqolada talabalar nutqida tashqi so‘zlarning ortiqcha qo‘llanish sabablari, ularning salbiy hamda ijobiy taraflari o‘zaro yoritiladi. Ijtimoiy tarmoq, internet va zamonaviy ta’limning til taraqqiyotiga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Talabalar nutqi, tashqi so‘zlar, ijtimoiy tarmoq, ijobiy va salbiy taraflari.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, til taraqqiyotiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalar nutqida xorijiy so‘zlarning faol qo‘llanilishi tobora ko‘zga tashlanmoqda. Rivojlanib borayotgan jamiyatda zamonaviy ilovalar va internet resurslarining kengayib borayotgani ham bu jarayonga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda talaba-yoshlar nutqida xorijiy so‘zlarning faol tarzda ko‘payishining bir qancha o‘ziga xos sabablari mavjud bo‘lib, ulardan biri ijtimoiy tarmoqlarda turli saviyadagi chet el kontentlarning soni oshib borayotgani hisoblanadi. Negaki, yoshlarning aksariyat qismi bugun ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazmoqda. Va, albatta, bu sarflangan vaqt ichida video-kontentdagi so‘zlar va uning mazmuni yoshlar ongiga singishi tabiiy hol. Ikkinchi omili esa ta’lim tizimidagi ayrim o‘zgarishlardir. Ya’ni hozirgi kundagi ko‘plab ilmiy yo‘nalishlar ingliz terminologiyasiga tayanadi. Ba’zi so‘zlar inglizcha bo‘lgani bilan, yoshlar o‘rtasida oddiy so‘zlashuv nutqining bir bo‘lagi sifatida foydalaniladi. Misol uchun, IT, Marketing, Management, SMM

Sanab o‘tilayotgan sabablardan yana biri lingvistik qulaylik ommalashayotganidir. Yaqqolroq aytilganda, talabalar o‘zbek tilidagi uzun so‘zning o‘rniga uning chet tilidagi qisqa tarjimasini qo‘llashni tanlamoqda. Masalan, "oxirgi topshirish muddati" deyish o‘rniga "deadline" deyish osonroq. Shu sababli kundalik nutq iste’molida qisqa variant ustun kelmoqda. Bundan tashqari, yuqorida ta’kidlanganidek ijtimoiy tarmoqlarda turli uslubli chet el bloggerlariga yoshlar orasida taqlidlar oshayotgani ham ayni sabablardan biridir.



Ushbu jarayonni ijobiy baholashdan oldin uning ayrim salbiy jihatlariga ham e'tibor qaratish lozim. Avvalo, talaba-yoshlar nutqida notanish xorijiy so'zlarning haddan tashqari ko'payishi tilning leksik muvozanati buzilishiga hamda nutqda aralash so'zlarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, hozirda ba'zi holatlarda xorijiy so'z bilim uchun emas, imidj uchun ishlatilmoqda. Bu esa nutqni tabiiy emas, aralash holga keltiradi. Bundan tashqari, xorijiy so'zlarning ortiqcha qo'llanilishi yoshlar orasida milliy o'zlikning zaiflashishiga va milliy tilimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Masalaning ikkinchi tomoniga qaralsa, bu jarayonning ijobiy jihatlarini ham kuzatish mumkin. Ma'lumki, til tarixan boshqa tillardan so'z olib keladi. Ya'ni, agar tashqi so'zlar to'g'ri o'zlashtirilsa, u lug'at boyishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, notanish so'zlar nutqda qo'llanilishi akademik va professional kompetensiya oshishiga xizmat qiladi, aniqrog'i, chet el so'zlarini bilgan talaba ilmiy maqolalarni oson tushuna oladi va chet el manbalari bilan ishlay oladi. Shuningdek, bunday terminlarni bilish yoshlarning akademik muhitga moslashishiga va ilmiy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Psixolingvistika nuqtai nazaridan qaralganda esa, bir qancha xorijiy til elementlarini bilish insonning dunyoqarashi va firklash doirasini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu jarayon tilshunos olimlarning nazaridan ham chetda qolmagan. Edward Sapirning nazariyasiga ko'ra, til jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarning aksidir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, talabalar nutqida xorijiy so'zlarning ko'payishi zamonaviy kommunikatsiya muhitining tabiiy natijasi sifatida izohlanadi. Tilshunos olim David Crystal ham globallashuv davrida tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayishini tabiiy jarayon sifatida baholaydi va xorijiy so'zlarning kirib kelishini til rivojlanishining muhim omillaridan biri deb hisoblaydi.

Mazkur jarayonga nisbatan eng muqobil yechimlardan biri — nutq madaniyati bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirishdir. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida "Nutq madaniyati" fani doirasida xorijiy so'zlardan o'rinli va me'yoriy foydalanish mezonlari tizimli ravishda o'rgatilishi lozim. Talabalarga qaysi vaziyatda va qaysi uslubda termin ishlatish zarurligi aniq tushuntirilsa, nutqdagi ortiqcha aralashuv hamda sun'iylik sezilarli darajada kamayadi. Natijada xorijiy so'zlardan foydalanish ongli, maqsadli va kommunikativ ehtiyoj asosida shakllanadi. Bundan tashqari, yoshlarga rasmiy va norasmiy uslub chegarasini bilishni va amal qilishni tushuntirish ham yechim bo'lishi mumkin. Ya'ni kundalik va ilmiy nutq o'rtasidagi o'zaro farqlar tushuntirilsa, talabalar qaysi vaziyatda xorijiy so'zlarni ishlatish o'rinli ekanini biladi.



Xulosa qilib aytganda, bu jarayonni mutlaq ijobiy ham, mutlaq salbiy ham baholash to'g'ri emas. Muammo xorijiy so'zlarning mavjudligida emas, balki ularning me'yorsiz qo'llanishidadir. Til tabiiy ravishda boyiydi va rivojlanadi. Eng muhimi, xorijiy so'zlardan ongli va o'rinli foydalanish madaniyatini shakllantirishdir. Shundagina til taraqqiy etadi va milliy nutq me'yorlari saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nizomiddin Mahmudov. Til va jamiyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
2. Erkin Begmatov. O'zbek tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985.
3. Uriel Weinreich. Languages in Contact: Findings and Problems. – New York: Linguistic Circle of New York, 1953.
4. Joshua Fishman. Sociolinguistics: A Brief Introduction. – Rowley, MA: Newbury House, 1971.
5. Mukaramxodjayeva T.Y. "Ingliz va o'zbek tilidagi so'zlashuv frazeologizmlarining lingvomadaniy xususiyatlari"//Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari Respublika ilmiy anjumani, Vol. 40 No. 1 (2025)
6. Mukaramxodjayeva T.Y. "The Cultural Code of Language: "A Linguaculturological Study of English Phraseologism" American Journal of Open University Education ISSN 2997-3899 Vol. 2, No. 2, Feb 2025,
7. Mukaramxodjayeva T.Y. " Functional diversities of phraseological units Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 3-son A seriya"